

## YÒSINLAR BÒLIMI ÒZIGA XOS BELGILARI VA KLASSIFIKATSIYASI

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

*Isomiddinova Gulira'no Akmaljon qizi E-mail:*

*[guliisomiddinova2006@gmail.com](mailto:guliisomiddinova2006@gmail.com)*

**Аннотация;** *Рассмотрены общие описания раздела “Растение” , биологические особенности и экологическая важность, а также главные сведения по растениям. Анализируется роль растений в природе и изучение многих форм, на основе морфологических и физиологических условных обозначений.*

**Abstract;** *General Description of the Mosses Section, Their Biological Characteristics, and Ecological Importance The section on mosses covers basic information about mosses, including their role in nature, biodiversity, and ecological significance. The study examines the variety of mosses and analyzes them based on their distinctive morphological and physiological features.*

**Ключевые слова:** *Водоросли, мохообразные, особенности, экологическая роль, классификация, биологическое разнообразие, морфология.*

**Key words:** *Algae, bryophytes, specific characters, ecological role, classification, biological diversity, morphology.*

Yo'sinlar bo'limi tavsifi va o'ziga xos belgilari Yòsinlar (Bryophyta) – pastki o'simliklar dunyosiga kiruvchi, ildiz, poya va barg o'rnini bosuvchi oddiy tuzilishga ega o'simliklardir. Ular suv va namlikka bog'liq holda yashaydi. Yo'sinlarda ildizlar o'rniga rizoidlar mavjud. Rizoidlar o'simlikni tuproqqa biriktiradi va suvni so'rishda yordam beradi. Ularning tanasida suv va oziq moddalarni tashuvchi maxsus tomir tizimi mavjud emas. Suv va oziq moddalar butun tanasi orqali diffuziya yo'li bilan o'tadi. Yo'sinlarning hayot davri ikki bosqichga bo'linadi: Gametofit (n): Jinsiy bosqich bo'lib, asosiy tanasi gametalar

hosil qiladi. Sporofit ( $2n$ ): Jinssiz bosqich bo‘lib, sporangiyalarda sporalar hosil bo‘ladi. Jinsiy ko‘payish uchun suv zarur, chunki erkak gametalar (spermatozoidlar) suv orqali ayol gametalarga (tuxum hujayralar) yetib boradi. Yo‘sinlarning asosiy qismi yashil rangli bo‘lib, fotosintez orqali oziqa moddalar hosil qiladi. Suvda va quruqlikda o‘shishga moslashgan. Vegetativ ko‘payish va jinsiy ko‘payish yo‘llari bilan tarqaladi. Fotosintez jarayonini amalga oshiradi. Yo‘sinlar bo‘limining klassifikatsiyasi Yòsinlar (Bryophyta) – o‘simliklar dunyosining evolyutsion jarayonida ilk quruqlik o‘simliklari hisoblanadi. Ularning klassifikatsiyasi morfologik, fiziologik va ekologik xususiyatlariga ko‘ra tuziladi. Yo‘sinlarning uchta asosiy sinfi Jigarsimon yosinlar (Marchantiophyta) Tavsif: Jigarsimon yosinlar yer yuzidagi eng qadimgi yosinlar hisoblanadi. Ular bargli yoki bargsiz bo‘lishi mumkin. Rizoidlar yordamida tuproqqa mahkamlanadi va jinsiy hamda vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi. O‘ziga xos xususiyatlari Tanasi talom shaklida yoki bir qavatli barglardan iborat. Ko‘pincha tropik va subtropik mintaqalarda uchraydi. Jinssiz ko‘payish. Sporalar yordamida. Sporalar suv yoki shamol orqali tarqaladi va mos muhitga tushganda yangi i.o‘simlikka aylanishi mumkin. Jinsiy ko‘payishi. Gametalar orqali. Erkak gametalar suv tomchilari yordamida ayol gametaga yetib boradi va urug‘lanish yuz beradi. Vegetativ ko‘payish: Tana bo‘laklari yoki maxsus gemmalar orqali yangi o‘simliklar hosil bo‘ladi. Gametofit bosqichi ustunlik qiladi. Haqiqiy yòsinlar (Bryopsida) Eng keng tarqalgan sinf bo‘lib, quruqlik va suv havzalarida yashaydi. Ular ekologik muvozanatda muhim o‘rin tutadi, chunki tuproq eroziyasini kamaytiradi va suvni ushlab turadi. O‘ziga xos xususiyatlari Barglari bir qavat hujayralardan iborat. Fotosintez faolligi yuqori. Sporangiyalar (spor hosil qiluvchi organlar) maxsus sopchada joylashgan. Sphagnum sp. (Botqoq yosini), Funaria hygrometrica (Tuproq yosini). Shox-yosinlar (Anthocerotophyta) Kam tarqalgan va oddiy tuzilishga ega. Ko‘pincha nam tropik mintaqalarda uchraydi. O‘ziga xos xususiyatlari Talom shaklida tanaga ega. Sporofiti uzun, shoxsimon ko‘rinishda bo‘ladi. Sporalar yetilgandan keyin sporofit o‘z-o‘zidan ochiladi. Misollar: Anthoceros sp., Notothylas sp..

Klassifikatsiyaning ahamiyati Yòsinlar uchta sinfga bo‘linishi ularning ekologik moslashuvlari va biologik xilma-xilligini tushunishga yordam beradi. Har bir sinf tabiatda o‘z o‘rniga ega Jigarsimon yòsinlar tuproq eroziyasini kamaytiradi. Haqiqiy yosinlar namlikni ushlab turuvchi va organik moddalarga boy qatlamlarni hosil qiladi. Shox-yosinlar tuproq unumdorligini oshiruvchi birlamchi o‘simliklar sifatida ahamiyatlidir. Yo‘sinlar bo‘limi (Bryophyta) Jigar yosinlar (Marchantiophyta) Haqiqiy yosinlar (Bryopsida) Shox-yosinlar (Anthocerotophyta) Mazkur sinflar ichidagi turlar ekotizimning barqarorligi va biologik xilma-xillikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov M. A. Botanika: O‘simliklar dunyosi. Toshkent, 2019.
2. To‘rayev X. T. O‘simliklar ekologiyasi va tizimlari. Toshkent, 2020.
3. У.Пратов, К^Жумаев. Юксак усимликлар систематикаси. (Укув кулланма). Т., ”УАЖБНТ”
4. Karimov, A. "O‘simliklar sistematikasi."
5. To‘raqulov, A. va boshqalar. "Botanika asoslari."
6. Niyozmetov, S. "Tuproqshunoslik va ekologiya."
7. Zokirov, I. A. "O‘zbekiston florasini."
8. Qobilov, X. "O‘simliklar ekologiyasi."